Vitavals-200 ф.ф - Buyuk Britaniyani "Krompton Yuniroyal Kemikal Redjistroyshner L.T.D" korxonasida ishlab chiqarilgan. Tarkibi Karboksim- tiran hisolanadi. Urug'lik chigitni ekish oldidan 1tonnasiga 5-6 litr hisobidan aralashtiriladi. O'simlikning o'sishi jadallashtiriladi.

Natriy gumati - O'zbekistonda ishlab chiqarilgan. Tarkibi gumin kislotalarining natriyli turlari hisoblanadi. Paxta, bug'doy, pomidor, kartoshka urug'larini ekishdan oldin qo'shiladi. 1 tonna chigitga 660-895 gramm me'yorda qo'shiladi. Ekish oldidan natriy gumati moddasidan 200 litr suvga belgilangan 0,5-1,0 soatdan chigit dimlamadi. Bunday urug'lik chigit ekilgan dalada paxta hosili ko'payadi.

Kuzgi bug'doyning 1 tonna urug'ga ekishdan oldin 0,7 kg. Me'yorda aralashtirilib namlanadi. Bug'doy urug' bilan ekilgan dalada g'alla hosildorligi oshib bug'doy nihollarini o'sishi jadallashadi. Bug'doyni tuplash fazasida bir gektar yerga 0,2 kg/ga me'yorida sepilganda o'simlikni o'sishi jadallashadi.

Pomidorning 1 tonna urug'iga 0,3 kg va har gektar hisobiga o'suv davrida 0,3 kg dan 2 marta purkalganda o'simlikni o'sishi jadallashib, hosildorlik oshadi.

Kartoshkaning 1 tonna tuganagiga 0,5 kg va 1ga yerga 0,3 kg dan purkalganda (o'suv davrida 2 marta) hosildorlikni oshiradi.

D-4-2-O'zbekistonda ishlab chiqarilgan.

Tarkibida tabiiy oqsillar va peptisidlar kompleksidan tashkil topgan. 1tonna urug'lik chigitga 0,002-0,004 gramm hisobidan chigitni ekish oldidan preparat eritmasida ivitiladi. O'simlikni o'sishini jadallashtiradi.

Nitrolin- O'zbekistonda ishlab chiqarilgan. Tarkibi sovunlangan, netron nomerli. G'o'zani o'sishini tezlashtiradi. Ekish oldidan 1tonna chigitga 6,0-8,0 litr eritmasini tayyorlab ivitiladi.

Bodringni 50kg urug'ga 50ml hisobidan ekishdan oldin 12 soat eritmada aralashtiriladi. 1kg urug'ga 500ml. O'simlikni o'suv davrida bir yoki ikki marta ishchi eritmasidan 500l/ga, preparatdan 1 gektar uchun 250ml, qo'shilsa purkab, o'simliklarni o'sishi tezlashadi.

Roshin-O'zbekistonda ishlab chiqarilgan. Tarkibida nitron tolasining nitronligi bilan aralashma holidadir. G'o'zani ekish oldidan 1tonna chigit 20-30 litr preparatdan 200-300 litr suvga aralashtirilib, ivitiladi. Urug'ni o'suvchanligini oshiradi.

Kuzgi bug'doyga qo'llashda 1tonna urug'ni 1litr preparatni 20 litr suvga aralashtirilib, ivitiladi. Bunda urug'ning unuvchanligi oshib, hosildorligi ko'payadi.

Pomidorni, bodringni gullash davrida gektariga 1.0 litr moddani 200 litr suvga eritib purkalganda o'simlikni o'sishini jadallashtiradi.

T.Y-85-O'zbekistonda ishlab chiqarilgan. Tarkibida oksietilmochevina sink gidratdan iborat. 1tonna urug'lik chigitga 20-30 gramm preparatni ekish oldidan ivitiladi. Natijada o'simlikni o'sishini jadallashtiradi.

Hosil- O'zbekistonda ishlab chiqarilgan. Tarkibi fosfatamollamin- g'o'zani shonalash fazasida 1ga yerga 20,0ml purkaladi. O'simlikni o'sishini jadallashtiradi va ertachi bo'lishini tamillaydi.

Pomidorni gullash davrida 1ga dalaga 5,0ml purkalganda hosil ertachi yetilib, hosil ko'p boladi. Kartoshkani ham 1ga maydonga 5,0ml sepilsa ortadi.

Karamni ham bosh o'rashga kirishganda 5,0ml/ga purkalganda o'sish va rivojlanish jadallashadi.

XC-2 - O'zbekiston mahsuloti. Tarkida furfuroolidendikarbamid. 1tonna urug'lik chigitga 10-20 g. ni suvga eritib ivitilganda o'sish va rivojlanish jadallashadi.

Kuzgi bug'doyni ham 1tonna urug'iga 5,0 gramm suvga eritib ivitilsa, o'sishini jadallashtiradi.

Ekstrasol - O'zbekiston mahsuloti. Tarkibida azot to'plovchi bakteriyalar mavjud. 1tonna chigitga 1,0 litr miqdorida suvga iritilib ivitiladi. G'o'zani 2-4 chinbarg chiqarganda eritilsa purkalganda o'simlikni o'sishi jadallashadi va hosildorlik oshadi.

3.5 Uzumchilikda qo'llaniladigan asosiy o'stiruvchi moddalar.

Auksinlar. Tabiiy holda yuksak o'simliklarda uchraydi. Bularga 3-indolilsirka, 3-indalilmoy, 3-nidolilpropin, alfanaftilmoy kabi kislotalar va ularning tuzlari, ayniqsa kaliyli tuzlari (K.A.N.U) kiradi. Bularning "C" vitamini qo'shilgan juda suyuq eritmasi tok qalamchalarida ildiz hosil qilish va ularning o'sishini, ko'chatlarning yaxshi tutib ketishini tezlashtiradi.

Sitohimlar. To'qimalarda hujayralarni bo'linishini tezlashtiradi, urug'larni tezroq unishini, kurtaklarning shakllanishini, novdalarning o'sishiga, shuningdek, barglarning ertachi qarishiga, hujayralarning yosharishiga ta'sir ko'rsatadi.

Retandartlar (xlorkominxlorid). O'simlikka gibberellin va auksinlarga qaraganda teskari ta'sir ko'rsatadi. Ular tok vegetative qismlari o'sishini kechiktiradi, novdalarni qisqartiradi, novdalar pishishini tezlashtiradi, ularning sovuqqa chidamliligini oshiradi. Bahorda kurtaklar uyg'onishini kechiktirib, tok yashil qismlarini bahorgi sovuqdan asrashga yordam beradi, shuningdek, genrativ organlarning shakllanishini kuchaytirib, yosh o'simlikning hosilga kirishini tezlashtiradi.

Xlorxolinxlorid ta'sirida tokning umumiy barg sathi kamaysada, ammo, ularda xlorofill miqdori ko'payishi hisobiga fotosintez faoliyati kuchayadi, generative organlar oziq moddalar bilan yaxshi ta'minlanadi, gujumlar to'liq tugulib, uzum boshlarining sifati oshadi.

Uzum boshlari zich bo'ladigan novdalar xlorxolinxlorid bilan ishlov berish tavsiya qilinmaydi (ularni yanada zichlashtirib yuboradi).

Tok tuplarini xlorxolinxlorid bilan ishlov quyidagicha amalga oshiriladi: tok gullashidan 10-15 kun oldin novdalar 40-50sm, chochok holatda bo'lganida O.U.M - 400 purkagichi bilan xlorxolinxloridning 0,005-0,075% li eritmasi purkaladi. 1 ga tokzorga 1 kg xlorxolinxlorid, 1500 atrofida ishchi suyuqlik sarflanadi. Bu ishni tok kasallik va zararkunandalariga qarshi ishlatiladigan preparatlar (bordo suyuqligi, kallandli oltingugurt, simob, kuprozan va boshqalar) bilan qo'shib olib borish yaxshi natija beradi.

Retandartlar sog'lik uchun xavf tug'dirmaydi. Gibberillinlar. Uzunmichlikda keng qo'llaniladigan o'stiruvchi moddalar guruhiga kiradi. 70 ga yaqin xillari ma'lum bo'lib, tokchilik amaliyotidagi kristall holdagi A_3 gibberillin (gibberill kislota) hamda gerbbersid (A_3 , A_7 , A_4 gibberill kislota) keng qo'llaniladi.

Ular o'simlik yashil qismlarining o'sishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, barglar shaklini va hajmini kattalashtiradi, yirik, urug'siz gujumlarni hosil qiladi va o'stiradi, tokning gullashi va hosil berishini tezlashtiradi va hokazo.

Akademik R.R.Shreder nomidagi Bog'dorchilik, uzunmichlik va vinochilik ilmiy-ishlab chiqarish korparatsiyasi (K.V. Smirnov, E.P. Prepel'sina), O'zbekiston O'simlikshunoslik ilmiy-tatqiqot instituti (M.S. Juravel, A.I. Frolov), Toshkent Davlat Agrar Universiteti (M.R. Musamammedov) ma'lumotlariga ko'ra gibberlining faqat uzumning urug'siz navlarigagina ijobiy ta'siri ko'rsatilgan. Gibberellin ta'sirida uzum boshlari va gujumlari sezilarli darajada kattalashib, umumiy hosil va uning sifati oshadi. Gibberellin faqat uzum boshi va uning gujumlarigagina ta'sir qilish xususiyatiga ega. Gibberellin bilan ishlov berishning eng qulay muddati-tok gullashining oxirgi va g'o'ralar tuzilishining boshlang'ich davrlari hisoblanadi.

Sepilgan eritma konsentratsiyasi kristall holdagi A_3 gibberellin uchun 100 mg/l (100 l suvga 10 g), gibbersib uchun 300-400 mg/l (100l suvga 30-40 g) eritmaning bug'lanib ketishini kamaytirish maqsadida, u ertalab yoki kechki vaqt sepilishi tavsiya qilinadi.

Gibberlin bilan ishlov berishning bir qator usullari mavjud: to'p gullarni og'zi keng idishga solingan ishchi eritmasiga botirib olish:

Yelkaga osib yuriluvchi qo'l purkagichi yordamida purkash: traktorli purkagichlar yordamida purkash.

Dastlabki ikki usul qo'l mehnatini ko'p talab qilgani uchun ularni katta maydonlarda qo'llash ancha mushkul va qimmatga tushadi. K.A.Temiryazov nomidagi Moskva qishloq xo'jaligi akademiyasining uzumchilik kafedrası, akademik R.R.Shreder nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ijmii ishlab chiqarish korpatsiyasi hamda O'rta Osiyo mashina sinash tajriba stansiyasi hamkorligida gibberlin bilan ishlov berishning mexanizatsiyalashtirilgan usuli ishlab chiqarilgan bo'lib, bu ish shu maqsad uchun moslashtirilgan O.V.T purkagichli hamda O.Y.M-400 changitib sepuvchi purkagich yordamida amalga oshiriladi.

Buning uchun tok toplari vaqatida, sifatli xomtok qilingan, novdalari bir tekis bog'langan, to'pgullar aniq ko'ringan holda bo'lishi shart. Shundagina to'pgullar gibberellin eritmasi bilan to'liq namlanib kiritilgan natijani beradi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra tuproq unumdorligi, namligi, agrotexnik tadbirlarning sifatiga qarab gibberellin bilan ishlov berilgan tokzorlar hosildorligi 35-60% gacha oshganligi kuzatilgan.

Gibberellin bilan ishlov berilgan yangi pishgan uzumning hamda undan tayyorlangan mayizning sifati ishlov berilmaganligidan deyarli farq qilmasada, ammo, ularning Tovar sifati yaxshi bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida olib birilgan ko'p yillik tadqiqotlar va sinovlar davrida 20 mingdan ortiq maydondagi kishmishbop navlarga gibbersellin bilan ishlov berilib, natijada qo'shimcha 80 ming tonnadan ortiq yuqori sifatli hosil yetishtirilgan va katta daromad olingan.

Keyingi yillarda tok tuplariga gibberellin bilan ishlov berishning mexanizatsiyalashgan usuliga o'tilishi va uni yanada kengroq maydonlarga joriy etish bilan birga boshqa arzon moddalar va ularning aralashmasini izlab topish va gibberellin safini kamaytirish masalasiga e'tibor bermoqda. Bu borada

S.K.Smirnov (K.A.Temiryazev nomidagi Moskva qishloq xo'jalik akademiyasi) tomonidan olib borilgan ko'p yillik ilmiy izlanishlar o'zining ijobiy natijasini beradi. Provardida 25mg/l gibberellina 10 mg/l Dropp preparatining qo'shib ishlatilishi oqibatida tokning yuqori hosildorligi ta'minlangan holda gibberellin sarfini 4 martagacha kamaytirishga erishilgan

Gibberellinning urug'li uzum navlariga ta'siri tokchilik rivojlangan va uni hosildorligini oshirish uchun qo'llash maqsadga muvofiq deb topilgan. K.A.Temiryazev nomidagi Moskva qishloq xo'jaligi akademiyasining xodimlari A.A.Butukayev va R.E.Kkzakmedovlar ham o'z ish tajribalari asosida xuddi shunday xulosaga kelishgan. Ammo, hosildorlik urug'siz navlariga nisbatan birmuncha ham bo'lishi aniqlangan. Gibberellin bilan urug'li texnologiyasi urug'siz navlariga o'xshash, ammo, bunda gibberellinni kamroq miqdorda (25-30 mg/l) sarflash tavsiya qilinadi.

Ayniqsa funksional urug'chi gulli uzum navlari (Nimray Kattaqo'rg'on, Tavkveri, Charos) da yaxshi samara beradi.

Sabab bunday gullarining changlanishi hamda urug'lanashi to'liq kechmasligi natijasida qo'llab hosil bo'lgan urug'siz va ham urug'li gujumlarga gibberellin eritmasi yaxshiroq ta'sir ko'rsatadi. Gibberellin bilan urug'li uzum navlarini ishlash urug'siz navlarnikiga nisbatan kechroq, ya'ni tok gullab bo'lgach, 10 kun davomida o'tkazilishi lozim.

Umuman tokchilik amaliyotida o'stiruvchi moddalarini qo'llash, uzum hosilini oshirish, uning sifatini yaxshilashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

3.6 Fotogarmonlar va biostimulyatorlarning samaradorligi.

Insoniyat qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda qo'l mehnatini yengillashtirish maqsadida muntazam izlanib, o'simlikni o'sish va rivojlanish davrida parvarish qilishdagi agrotexnik tadbirlarni sifatli va o'z vaqtida o'tkazishni takomillashtirib bordi. Mexanizatsiyalashtirishdagi yutuqlar ko'plab qo'l mehnatini o'z zimmasiga oladi. Kimyolashtirish orqali organizmlardan o'simliklarni himoya qilib, mahsulot

miqdori sifatini yaxshilaydi. Uyg'unlashgan himoyani qo'llash orqali kasallik, zararkunanda, begona o'tlarga qarshi kurashdagi zararlanishni kamaytirish yo'lga qo'yildi, atrof-muhit musaffoligi, inson salomatligiga e'tibor qaratildi.

Keyingi yillarda o'simliklarni o'sishi va rivojlanishini boshqarishda ham kimyoviy vositalardan, suniiy fitogarmonlar, biostimulyatorlarni qo'llash dunyo dehqonchilik amaliyotida ko'p qo'llanilmoqda. O'simliklarni o'sish va rivojlanishida bo'ladigan o'zgarishlar ya'ni novdalar chiqarishi, hosil elementlaridan shono, gul, urug' mevalar paydo bo'lishida shuningdek tinim davri rivojlanish fazalari tabiiy fitogarmonlar ta'sirida sodir bo'lishi olimlar tomonidan aniqlandi. Bunday moddalarni oz miqdorda o'simlik organizmida sintez qilinishi moddalar almashinuvida jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. O'simlik tomonidan ishlab chiqariladigan tabiiy (endogen) o'sishni boshqaruvchi moddalar fitogarmonlar bo'lib, bu garmonlar ta'sirida o'simlikdagi barcha hayotiy jarayonlar, moddalar almashinuvi amalga oshadi.

O'simliklarning hayotiy faoliyati qishki tinim davriga kirishi barchasi mana shu garmonlar- moddalar bilan bo'g'liq chunki, fitogarmonlardan tashqari hech qaday modda, agrotexnik tadbirlar ekinlarni yetishtirishda o'simlikdagi fiziologik jarayonlarga ta'sir qila olmaydi, boshqara olmaydi.

Hozirgi vaqtda fan taraqqiyoti olimlar xizmati bilan yuqori fiziologik ta'sirga ega bo'lgan fitogarmonlar suniiy analoglari yaratildi. Bunday suniiy moddalar o'simlik tomonidan ishlab chiqarilmasada, ta'sir jihatdan undan ancha ustundir.

Qishloq xo'jalik o'simliklarini o'sish va rivojlanishini boshqaruvchi moddalar dunyo amaliyotida 50 yildan ortiq vaqtdan beri qo'llanib kelinmoqda. Ularning turi 5000 dan ortib ketdi. Shundan suniiy fitogarmonlardan biri Entojean bo'lib, oq poroshok ko'rinishida, suvda yaxshi eriydi. Ta'sir qiluvchi moddasi-mepikvaxlorid hisoblanadi.

Entojean o'simliklarni o'sishini boshqaradi. G'o'zaga sepilganda o'simlikni o'suvchi va hosil beruvchi qismlariga ta'sir ko'rsatadi. Barg orqali singib, o'simlik shirasi bilan barcha qismlariga tarqaladi.

Entojean o'simlikni o'sishini sekinlashtirib, g'o'za tupini ixchamlashtiradi.

Uning afzalliklari:

1. Entojean ishlatilgandan keyin g'o'zaga uchlari chekonka (chilpish) qilinmaydi.
2. Hosil shohlari ixchamlashgani tufayli qator orasiga ishlov berish osonlashadi.
3. G'o'za tupiga issiqlik, yorug'lik me'yorida tushgani natijasida ko'saklar tez ochiladi.
4. Paxtani qo'lda va mashinada terishni yengillashtiradi.
5. Barglar tez qarishi natijasida g'o'za bargini suniiy tushirish samarali bo'ladi.
6. Tuproqdagi ozuqa elementlari va suvdan samarali, foydalanishga erishiladi, chunki g'o'zada hosilsiz shoxlar deyarli bo'lmaydi va g'ovlab ketmaydi.
7. O'simlikning zararkunanda va hashoratlar bilan zararlanishi keskin kamayadi.
8. Terimni 10-150kun oldin boshlash imkoniyati tug'ilgandan keyin ekinlarni ertachiroq ekish uchun sharoit yaratiladi.
9. Hosildorlik 3-5sentnerga ortadi.
10. Iqtisodiy samaradorlik yuqori bo'lishi bilan bir qatorda og'ir jismoniy qo'l mehnati yengillashadi.

Entojean qo'llaganda faqat barcha afzalligi, ya'ni chekonka qilinmasligi o'zi juda katta foyda keltiradi, chunki, 1ga maydondagi g'o'zani sifatli qilib chekonka qilish uchun 300 ming ta, qo'sh qator ekilgan dalalarda 600 ming tupni uchini chilpish kerak. Iyul oyining jazirama issig'ida bunday ishni qilish qanchalik og'ir mehnat talab etadi.

Ayrim paxtakorlarda ento-je-an sepilgandan so'ng g'o'za o'sishdan qoladi degan noto'g'ri tasavvur paydo bo'lmasligi uchun preprat qo'llanilgandan keyin 30sm gacha o'sishi mumkinligini eslatmoqchimiz.

2012 yil paxta hosili uchun Nishon tumanidagi M.Turdiyev rahbarlik qiloyotgan "Quvonchbek" fermer xo'jaligining paxta maydoniga 2-iyul kuni 3 xil me'yorda 100; 120; 150; grammga hisobidan sepdik. Entojeanning ta'siri 8-

iyuldan ko'rina boshladi. 13-iyul kuni tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i (Boymirov) rahbarligida bir qator talribali ishchi guruh bilan Nishon tumanidagi "Quvonchbek" fermer xo'jaligi (boshqaruv raisi M.Turdiyev) paxta maydoniga 2-iyul kuni g'ovlagan g'o'zaga sepilgan ento-je-an ta'siri 5,8,12-iyul kunlari ko'rib, kuzatuv olib birildi. 5-iyuldan boshlab g'o'zalarni tuplari ixchamlashib, o'sishdan to'xtab, hosil elementlari miqdori ko'payib, qo'shimcha shona, gul, ko'sak olishi kundab kunga ortib bordi. 13-iyul kuni viloyat va tuman qishloq xo'jalik, tuman va suv xo'jaligi boshqarma boshlig'i va bir qator tajribali paxtakorlar ishtirokida ko'rgazmali seminar tashkil qilinib ko'rsatildi. Keyinchalik agrotexnik tadbirlar belgilangan tartibda olib birildi. Natijada kutilgandan ancha yaxshi bo'ladi. 100g/ga sepilgan variantda 39.3 sentnerga, 120 gramm sepilganda 43.3 sentnerga, 150 gramm sepilganda variant hosili olinadi.

Olingan hosilni 90% ga yaqin yuqori sortlarga paxta qabul qilishi maskanlariga yetkazib berildi. Ento-je-an sepilganda variantlarda g'o'za bargini suniiy to'ktirish uchun sepilgan defoliant yuqori samara beradi. Bu variantlarda paxtaning ochilish surati 10-12 kun oldin bo'lishi taminlandi. Sinab ko'rilgan variantlar doirasida har gektar yerga 120 gramm sepilganda ancha yuqori bo'lganligi kuzatildi. Fermer xo'jaligining ento-je-an sepilmagan dalalardagi paxta hosildorligi 36 sentnerga atrofida bo'ladi.

Nishon tumani qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasining boshlig'i Boymirov rahbarligida tajribali fermerlardan iborat maxsus komissiya xulosasiga asoslangan holda har gektar yerga 120 gramm ento-je-an preparati g'o'za hosilga kirish fazasiga qo'llanilgandan yuqori samara qayt qilindi. 2-iyul kuni hosil elementlari paydo bo'lganligining guvohi bo'lishdi. Ento-je-aning bunday ta'sirini ko'rgan fermerlar darhol buyurtma berib, o'zlarining dalasiga shu kuni septirish boshlandi.

Adabiyotlar taxlili va Respublikamizda o'tkazilayotgan tajriba yakunlariga qaraganda ento-je-an qo'llaganda salbiy oqibatlar kuzatilmagan. Mustaqil Respublikamizning Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Qilinayotgan barcha ishlar inson manfaati uchun" degan da'vatiga amal qilgan holda paxtakorlarimizning g'o'zani chekonka qilishdek jismonan qiyin bo'lgan qo'l

mehnatini ento-je-anni qo'llash orqali amalga oshirilsa yoshlarimiz salomatligi uchun foydali ishlarni qilgan bo'lamiz.

Shuningdek ertachi, sifatli, mo'l hosil olish taminlanadi. Kuzgi ishlarni ertachi boshlash imkoniyat yaratiladi.

O'zbekiston Paxtachilik ilmiy tadqiqot insitutining markaziy tajriba stansiyasida o'tkazilgan tajriba natijalariga qaraganda, biostimulyatorlarni qo'llashning muddatlari, me'yorlarini belgilash maqsadida chigitni ekishdan oldin berilgan.

Sh.Abdualimov va boshqalar (2013yil) ning ma'lumotlariga Rostbisol, T_Y-85, Natriy gumat, Oberet, Gumimaks, Fitoval biostimulyatorlari yuqori samaradorlikka erishildi. Natriy gumat (2.2 kg/ga) ta'sirida 27.5, Oberet (1ml/t)-27.5, Fitoval (200ml/t)-26.5% chigit unuvchanligini yuqori bo'lishini ta'minlagan. Paxta hosildorligini gumimaks 4.7 sentnerga, Natriy gumat 1.4 sentnerga oshirgan.

Samarqand qishloq xo'jalik institutining o'quv tajriba xo'jaligi sharoitida kartoshkaning Quvonch 16/56m, Sute navlarini o'sitiruvchi biostimulyatorlar sifatida bug'doyning ekstrakti va Baykal EM-1 mikrobiologik o'g'itlari qo'llanilib, hosildorlik 28.4-31.5 t/ga ni tashkil etgan va nazoratga nisbatan 8.8-11.9 t/ga yuqori bo'lgan.

Demak, qishloq xo'jalik ekinlarini parvarish qilish va sifatli, mo'l hosil yetishtirishda fitogarmonlar, hamda biostumulyatorlardan unumli foydalanish yuqori samara beradi.

Qishloq xo'jalik ekinlarini barcha tur va navlarida suniiy fitogarmon, biostimulyatorlarni qo'llash me'yorlari, muddatlari, turlari, mahsulot sifatiga ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

4. IQTISODIY SAMARADORLIK

Dunyoda 2008-yildan beri iqtisodiy moliyaviy inqiroz davom etmoqda. Bu inqirozni birinchi to'liqini o'tganligi haqida ma'lumotlar ananaviy axborot vositalarida uchrasada, hanuzgacha uni tugashi haqida aniq fikrga kelish qiyin. Chunki 2012-yil may oyida A.Q.Sh da bo'lib o'tgan 8 ta eng rivojlangan davlatlarning rahbarlari ham yig'ilgan aniq fikr bildirisha olmadi. Yevropa ittifoqida birlashgan 27 davlatlardan Gretsiya, Ispaniyalarda iqtisodiy inqirozdan chiqish yo'li bu Yevropa ittifoqidan ajralishda deb bilmoqdalar.

Shimoliy Afrika davlatlari Misr, Livan, Yaman, Suriyalarda ham noroziligi degan da'vat ostida qonuniy davlat rahbarlariga qarshi appozitsiya bosh ko'tarib tinch aholini nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov bundan 4 yil muqaddam yozgan "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" risolalarida Respublikamiz sharoitida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga oid moliyaviy inqirozni bartaraf etish yo'llarini atroflicha tahlil qilib berdilar.

2012-yil 15-may Rossiya federatsiyasiga tashrifida Prezidentimiz O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 30 million aholini iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish asosiy vazifa ekanligini alohida ta'kidladi. Olib borilayotgan odilona, to'g'ri siyosat tufayli Respublikamiz xalqi jahonda ro'y berayotgan moliyaviy iqtisodiy inqirozdan zarar ko'rayotgani yo'q, balki har yili barcha sohada ma'lum darajada o'sish, rivojlanishni ta'minlamoqda. Shu jumladan qishloq xo'jaligini rivojlanish su'rati 5-6% dan ortiq bo'layapti. Respublikamiz hukumati, Markaziy Bank tomonidan keyingi yillarda qabul qilingan me'yoriy hujjatlar va fermer xo'jaliklariga berilayotgan uzoq muddatli imziyozli kreditlar. 2011-yilni Prezidentimiz tomonidan "Kichik biznes va tadbirkorlik" yili deb e'lon qilinishi ayni muddao bo'ldi. Har yili mini-texnologiyalarni fermer xo'jaliklariga kiritish bo'yicha xalqaro yarmarkalarni Respublikamizda tashkil etishi va innavatsiyalarni jalb qilinishi tufayli fermer

xo'jaliklarni daromadlari yanada ortib, mahsulotlarni sifati yaxshilanib, xomashyoni nobudgarchiligiga ta'sir qilib keskin pasayadi.

Dunyoda oltin narxining oshib borishi ya'ni unsiya miqdordagi oltin narxda 1500 dollardan oshganligi, yiki bir barrel neftning jahon bororida qisqa muddatda qaytadan 2 barovar oshib 102 dollardan ortganligi ham molyaviy-iqtisodiy inqiroz dunyo mamlakatlarida davom etayotganligidan dalolat beradi. Bunday nomutanosibliklar Shimoliy Afrika davlatlari Tupis, Yetipet, Livan, Yaman, Suriya davlatlaridagi xalq noroziligiga olib kelib, apporatsiya davlat tumaniga qarshi chiqishlarida ham ma'lum miqdorda inqirozning ta'siri kuzatiladi. Shuning uchun ham Respublikamiz Prezidenti 2008-yilda boshlangan jahon molyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi kurash yo'llarini belgilab bergan asari (2009-yil) nechog'lik o'z vaqtida chop qilinganligini hayotda isbotlaydi. Mamlakatimizda rivojlanish bir zaylda tekis borayotganligi buni qanchalik to'g'ri siyosat ekanligini ko'rsatadi. Hukumatimiz tomonidan paxtachilik bilan bir qatorda oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab dunyo standart talablariga yetkazib eksportbop mahsulot yetishtirish bo'yicha qilinayotgan ishlar bunga misol bo'ladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan yil davomida aholini o'sib borayotgan talablarini qondirib, issiqxonalar, plyonka ostida mahsulotlar yetkazib dasturxonni bezamoqdalar. Ayniqsa ertachi sabzavot-poliz mahsulotlari yetishtirish bilan bir qatorda, yil davomida olingan hosilni uzoq muddat saqlash texnologiyalarini o'zlashtirib hatto ayrim mahsulotlarni yangi hosil chiqqancha saqlab bog'larni obod qilish bilan bir qatorda iqtisodiy samaradorlikka erishyaptilar.

Fermer xo'jaliklarida yerdan samarali foydalanishning iqtisodiy samaradorligi natural va ko'plab o'lchovlarida aniqlanadi. Buning uchun quyidagicha formulardan foydalanish mumkin.

1. Natural o'lchovlar bo'yicha yoki maydonning samaradorligi:

$$X = \frac{YM}{S}$$

Bunda: ЯМ - Yalpi hosil, sentner.

S - Ekin ekiladigan maydon, ga.

X - Hosildorlik, sentnerga.

2. Qiymat hisobida ekin maydonning samaradorligi.

$$C_K = \frac{ЯМ \cdot yoki ЯD \cdot yoki \Phi}{S}$$

Bunda:

ЯМ - Yalpi mahsulot so'm hisobida.

ЯD - Yalpi daromad so'm hisobida.

Φ - Foyda so'm hisobida.

S - Ekin ekiladigan maydon.

C_K - Samaradorlik ko'rsatgichi, %.

5. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH.

O'simliklarni o'sish va rivojlanishini boshqaruvchi moddalar murakkab kimyoviy birikmalar bo'lganligi uchun moddalar bilan ishlaganda texnika xavfsizligi qoidalariga to'liq amal qilish kerak. Shuning uchun texnika xavfsizligi qoidalarini kengroq yoritishni lozim deb hisoblaymiz.

1.Umumiy qoidalar.

1.1. Texnika xavfsizligi qoidalarini O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha xalq xo'jaligi va shaxsiy tomorqalarda kimyoviy moddalar qo'llanilishida, saqlanishida va tashishida odamlar sog'ligini va atrof-muhit muhofazasini ta'minlashda rioya qilinishi zarur bo'lgan asosiy hujjatdir.

Kimyoviy moddalar kimyoviy yoki biogik modda bo'lib, parazit hayot kechiruvchi (hashorot o'simlik kasalliklarini qo'zg'atuvchilari, begona o'tlar hayvonlar yoki parrandalarda endo yoki ektoparazitlar, odamlar yoki hayvonlarda turli yuqumli xastaliklar qo'zg'atuvchilarni tashib yuruvchilar: kemiruvchilar hamda bino yoki yog'ochli inshoot uskunalarga zarar yetkazuvchilarga) qarshi kurashda qo'llanadigan ayrim hollarda, o'simlik bargini to'kish yoki uni o'sish prosesiga ta'sir etuvchi moddalardir.

1.2. Ushbu talablar va qoidalar kimyoviy moddalarga aloqador har qanday xo'jalik, tashkilot, muassasa yoki alohida shaxs uchun bajarilishi shartdir.

1.3. Kimyoviy moddalar ishlatishishi, tashilishi va saqlanishi hududiy hokimiyatlar, uni ishlatuvchi tashkilotlar, Davlat tabiatni muhofaza etish qo'mitalari va Davlat sanitariya nazorati tomonidan nazorat etiladi.

1.4. Kimyoviy moddalar bilan ishlashga avvaldan tibbiy ko'rigidan o'tib, ishlashga ruxsat etuvchi tibbiy sanitariya shahodatnomasi bor. Sog'lom, maxsus xavfsizlik qoidalarini bilan to'liq tanish kishilargina ruxsat etiladi.

1.5. Bu ishga jalb etuvchilar shu ishga jalb etuvchi tashkilot, muassasa, korxona yoki xo'jalik hisobidan zaruriy himoya vositalari bilan, texnik anjom, uskuna va mexanizmlar bilan ta'minlashlari texnika xavfsizligi haqida ma'lumotli bo'lishlarini, hamda tibbiy ko'rikdan o'tkazishlarini ta'minlashlari shart.

Bu ishga 18 yoshga to'lmagan barcha shaxslar, emizakli va xomilador ayollar, 55 yoshdan yuqori erkaklar va 50 yoshdan yuqori ayollar hamda tibbiy ko'rikdan nosog'lom deb topilganlar jalb etilishi taqiqlanadi.

Kimyoviy moddalar bilan, ish kuning 4 soatgacha, zaharligi ham bo'lgan preparatlar bilan (3-4 klass) 6 soatgachagina ishlashga ruxsat etiladi.

2. Kimyoviy moddalar qo'llanilishidagi shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi.

2.1. Kimyoviy vositalarni qishloq xo'jaligida ishlayotgan har bir xo'jalik, korxona tashkilot yoki ayrim shaxs shu bilan band bo'lgan ishchi va xodimlarni himoya etuvchi zaruriy va kerakli ustbosh va maxsus himoya vositalari bilan to'la ta'minlashlari shart. Ishlatilayotgan preparat xossalariidan kelib chiqib ishchi, xizmatchilar ta'minlanadigan ust-bosh va himoya vositalari bilan to'g'ri ta'min etishiga shu jarayonga rahbarlik etuvchi shaxs qonuniy javobgardirlar.

2.2. Kimyoviy vositalar bilan ishlovchi ishchi va xodim shu jarayonga va ishlatuvchi preparat xususiyatlari hisobga olingan holda maxsus ust-bosh oyoq kiyim, qo'lgoplar, himoya ko'zoynagi, nafas yo'llarini himoyalovchi vositalar bilan va ularning ehtiyot qismlari bilan yetarli ta'minlanishlari talab etiladi.

3. Kimyoviy moddalarni qo'llash davridagi sanitariya qoidalari.

3.1. Kimyoviy moddalar qo'llanishida barcha ishlar yetarli darajada mexanizatsiyalashtirishi va iloji boricha qo'l mehnati, odamlar ishtiroki bo'lishi talab etiladi.

3.2. Kimyoviy moddalar ishlatiladigan ish joylarida kutilmagan holatlar ro'y berganda, odamlar hayoti yoki sog'ligi xavf ostida bo'lganda, qanday chora tadbirlar ko'rish borasidagi ko'rgazmali qo'llanmalar bo'lishi talab etiladi. Bu joyda doimiy ravishda birinchi yordam ko'rsatishga mo'ljallangan dori vositalari bo'lishi shart.

3.3. Kimyoviy moddalar qo'llanilishida, shu ishga jalb etuvchilar uchun dam olish joylari, ovqatlanish joylari, shaxsiy gigiyena muolajalari joylari bo'lishi talab etiladi.

3.4. Kimyoviy ishlov beradigan maydon chegerasi avvaldan aniqlangan bo'lishi hamda 48 soat avval sanitariya himoya maydoni bo'ylab ogohlantiruvchi (kamida 20 m) belgilar qo'yilishi talab etiladi va bu maydonga va ishga aloqodori bo'lmaganlarni kirishi taqiqlanadi.

3.5. Ishlatiladigan prepratlar yoki dorilangan urug'larni dala shiypolarida, shaxsiy xo'jaliklarda va bo'lak qorovsiz joylarda qoldirish man etiladi.

3.6. Shu ishga jalb etiladigan va bo'lak asbob-uskunalar shu maqsad uchun ajratilgan maxsus joylarda qorovsiz bo'lmagan sharoitida saqlanishi talab etiladi.

3.7. Mavsumiy ish boshlashdan avval barcha asbob-uskunalar, anjomlar va mexanizmlar to'liq taminlangan sozlangan holda bo'lishi va ular ish jarayonida zaharli kimyo vositalari va ishchi eritmalari bilan atrof-muhitni ifloslantimaydigan bo'lish kerak.

3.8. Moslama va mexanizmlarni, mashina va boshqa uskunalarni ish vaqtida ta'mirlash yoki sozlash taqiqlanadi, agar sharoit shuni talab etsa ish to'la to'xtatilib maxsus himoya vositalari yordamida bajarilishi, buni imkoni bo'lmasa ishchi eritmada bo'shatib, uni zararsizlantiradi.

4. Kimyoviy moddalar purkagichlar yordamida ishlatiladi.

4.1. Yaxlit dala eng qulay, xavfsiz va eng kami bilan 20 m sanitariya himoya maydoni bor joy tanlanishi shart. Bunda shamol esishining albatta hisobga olinishi kerak. Chunki purkalayotgan preprat shu ish joydagilarga ta'sir etmasligi talab etiladi. Bunday ish jarayonida shamol tezligi 3m/sek dan yuqori bo'lmagan sharoitda o'tkazilishi talab etiladi.

5. Urug'liklarni ekishdan avvalgi dorilash va ularni saqlash, tashish va ishlatishdagi qoidalar.

5.1. Urug'liklarni dorilashda qo'l bilan belkuraklar yordamida umuman bu jarayonga mo'ljallangan asbob-uskunalaridan foydalanish, hamda bu ishga daxlsiz shaxslarning ishtirok etishi taqiqlanadi.

6. ATROF MUHIT MUHOFAZASI.

Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarida ekologiyani buzilashi natijasida sodir bo'layotga turli xil ko'ngilsiz voqealarni guvohi bo'lmoqdamiz. Bu ofatlar tufayli minglab odamlar boshpanasiz qolmoqda va turli xil kasalliklarga duchor bo'lmoqda.

Insoniyatni atrof-muhitga salbiy ta'sira kunda-kunga ortib bormoqda. Jadal texnik taraqqiyot va is'temol talabining ortish jarayoni tabiatga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi albatta.

So'nggi paytlarda jahon ommaviy axborot vositalarida insoniyatni tabiatga salbiy ta'siri ortib borayotgani haqida ko'p gapirilmoqda. Jumladan, ilm fan va texnikaning taraqqiy etishi, tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish hamda yildan-yilga soni ortib borayotgan yirik-yirik ishlab chiqarish majmualaridan atmosferaga chiqayotgan zaharli gazlar sayyoramizga keskin o'zgarishlarga, tabiiy texnogen holatlarni ko'payishiga olib kelmoqda.

Bunday salbiy ta'sirlar oqibatida azon qatlamining yemirilishi tezlashmoqda, toza ichimlik suvuning ifloslanishi oshib bormoqda va shu bilan birga, bio xilma – xillikka putr yetmoqda. Mutaxasislarning takidlashicha, oxirgi yillarda suv toshqinlarining ko'payishiga havoning keskin isib ketishi sabab bo'layotgan ekan.

Xususan, iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlar aro ekspertlar guruhi ma'lumotlariga ko'ra so'nggi 40 yilda okeanlar haroratining ortishi kutilgandan 50% tezroq sodir bo'lmoqda. Agar global o'sish natijasida quriqlikdagi muzliklar o'sishi davom etsa, 2100 yilga borib, ummonlarda suv satxi ko'tariladi. Kuzatuvchilar Grenlandiya va Antarktidadagi muz qoyalarining yo'qolib borayotgani qo'shimcha tashvish keltirishi mumkinligini takidlammoqda. Ya'ni, sayyoramizdagi okeanlar suvlari avvalgidek ko'tarilishida davom etsa, 50-60 yildan so'ng "Ko'hna qit'a" quriqliklarining bir qismi suv ostida qolishi mumkin. Bunday salbiy oqibatlar Osiyoda ham kuzatilmoqda. Jumladan, qit'ada sahrolanish va qurg'oqchilik taboro kengayib bormoqda.

Yorug'lik yer yuzidadagi tirik organizmlarning hayoti muhim rol o'ynovchi omillardan biri yorug'lik bo'lib, bu ayniqsa yashil o'simliklar uchun zarardir.

Yorug'lik o'simlikning fiziologik funksiyasiga, o'sish va rivojlanish tezligiga normal, kuchsiz-kuchli ta'sir ko'rsatadi. Eng muhimi yorug'lik ta'sirida barcha suv o'tlar, yuksak sporali o'simliklar, ochiq hamda yopiq urug'li o'simliklarda fotosintez jarayoni sodir bo'ladi. Fotosintez jarayoni esa o'simliklar hayotida muhim rol o'ynaydi.

O'simliklar inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtga kelib texnikaning jadal rivojlanishi ta'sirida atmosferaga turli xil zaharli gazlar tarqalmoqda va turli xil kasallikga sabab bo'lmoqda. Atrof-muhitni turli xil zaharli gazlardan va changlardan tozalashda o'simliklarning hissi kattadir. Nafaqat dalalarda, sanoat korxonalari atrofida, qishloqlarda, maktab va bog'chalarda, shifoxonalar yonida o'simliklarni ko'paytirish va ixota daraxtzorlarini ko'paytirish zarurdir.

Namlik barcha organizmlarning yer yuzida tarqalishida harorat bilan namlik omili ham muhim ahamiyatga ega. O'simlik tanasidagi moddalarning 50-98%ini suv tashkil etadi. Hujayralarda boradigan barcha kimyoviy reaksiyalar suv ishtirokida bo'ladi. Suvda yashaydigan organizmlar uchun suv muhim bo'lib xizmat qiladi.

O'simliklar hayotida namlikning ahamiyati kattadir. Keyingi 2-3 yildavomida qish fasli dunyoning ko'plab mintaqalarida juda qattiq keldi. Xususan, ba'zi mamlakatlarda havo harorati 40-45 darajaga tushib ketdi. Hatto, osmonida yil o'n ikki oy quyosh charaqlab turadigan mamlakatlarda ham qor yoqqani ma'lum.

Sanoat texnika jadal san'atda rivojlanayotganligini tufayli dunyoda ekologiya muammosi ko'tarilmoqda. Respublikamiz rahbariyati ham atrof-muhit muhofazasiga katta ahamiyat berib kelayapti. Oliy Kengashning qonunchilik palatasida maxsus ekologik harakat komissiyasi ish olib borayapti. Shuning uchun ham o'simliklardagi o'sish va rivojlanishni boshqaruvchi vositalar kimyoviy moddalar bo'lganligi uchun ham ularni pala-partish qo'llash atrof-muhitni ifloslanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishni e'tiborga olgan holda kimyoviy vositalarni qo'llash me'yorlari va uslublariga qat'iy rioya qilish lozim.

XULOSA VA ISHLAB CHIQARISHGA TAVSIYALAR.

Adabiyotlar tahlili va olib borilayotgan kuzatishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish, sifatini yaxshilash ertachi mahsulotlar yetishtirishda o'sish va rivojlanish boshqaruvchi kimyoviy preparatlarning o'rni beqiyos ekanligi qayt qilinsin.
2. Jahon dehqonchilik amaliyotida qo'llanib kelingan fitogarmonlarni samarali turlaridan Sojean, Piks, Natriy gumat, Kompazou-M va boshqa turlarini hamda Respublikamizda ishlab chiqarilgan Uz TEKC, Entojean, Hosil, Eksrasol kabilarni qo'llash samarali ekanligi dala tajribalari natijalariga asosan o'z isbotini topdi.
3. Nishon tumanidagi "Quvonchbek" fermer xo'jaligida 2012-yilda paxtaning Buxoro-6 naviga entojeanni 1 l/ga hisibida 1marta qo'llaganda hosildorligi 24,0%ga oshganligi va paxta 10-12 kun ertachi ochilganligi o'z isbotini topdi.

Olingan ma'lumotlar va berilgan tavsiyalar asosida Respublika ilmiy anjumanida (2013-yil) doklad qildi va doklad materiallari chop etildi.

Ishlab chiqarishga tavsiyalar.

1. Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, ertachi hosil yetishtirishda o'sish va rivojlanishni boshqaruvchi kimyoviy prepratlarini qo'llash orqali erishiladi. Fermer xo'jaliklarida paxta-g'alla, sabzavot, poliz, meva tok va boshqa ekinlarini me'yorlari, qo'lash muddatlari, usullari qat'iy rioya qilgan holda bajarish yuqori samaraga erishishni ta'minlaydi.

Kuzgi, qishki dala ishlarini ertachi o'tkazish imkonini yaratib, kelgusi yil hosiliga zamin yaratadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Huquqiy va me'yoriy hujjatlar.
 - 1.1. O'zbekiston Respublikasini qonunlari.
 - 1.1.1. "Fermar xo'jaligi to'g'risida" gi qonun yangi tahriri 2004 yil.
 - 1.1.2. "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonun 1998 yil.
 - 1.1.3. Mehnat kodeksi 1998 yil.
 - 1.1.4. Yer kodeksi 1998 yil.
 - 1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari.
 - 1.2.1. Qishloq xo'jaligi islohatlarini chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida. 2003 yil.
 - 1.2.2. "2004-2006-yillrda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"2003 y.
 - 1.2.3. "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2008 yil 21-apreldagi qarori.
 - 1.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari.
 - 1.3.1. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarning chuqurlashtirish tadbirlari to'g'risida" 1993 yil 9-yanvar.
 - 1.4. Boshqa me'yoriy hujjatlar.
 - 1.4.1. 1998-2000-yillardagi davrda qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloharlarni chuqurlashtirish Dasturi 1. 1998 yil.
 - 1.4.2. O'zbekiston Respublikasi huzuruda ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat registri T.2004 yil.
 - 1.5. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish Prezident asarlari va ma'ruzalari.
 - 1.5.1. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy iqtisodiy-inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish choralari " 2002 yil.
 - 1.5.2. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti muhim hayot manbai.

- 1.5.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yil 20-iyundagi Jizzax viloyati fermer xo'jaliklari vakillari bilan uchrashuvdagi suhbat.
2. G'o'za parvarish qilish agrolikasi O'zb. q. x. N₅. 2013 yil.
- 2.1. B.Xoliqov, B.Niyozaliyev, F.Xojanova g'o'za qator oralariga birinchi ishlov berish O'zb.q/x. N₄ 2013 yil.
- 2.1.2. I.Rahmatov, J.Ahmedov, Sh.Djumayev o'rta tolali O'z T.I.T.Sh-2001 g'o'za navi O'zb.q.x N₄ 2013 yil.
- 2.1.3. I.Bo'riyev, B.Tillabekov. G'o'za kasalliklari ochilishini jadallashtirish O'zb.q.x N₄ 2013 yil.
3. Paxta dalasi ekologoyasi T.S. Zohirov Toshkent-1991 yil
- 3.1. Batnayev J.Ya va boshqalar, Unobreniya xlopchatnika v golodnoy stepi almatiy1991 yil.
- 3.1.2. Zohirov T.S "Ximya va paxtaga " T. 1973 yil.
- 3.1.3. Kondratyuk V.T Obrabotka pochiy-pod posev xlopchatnika T. 1973 yil.
- 3.1.4. Ch.Ro'ziyev va boshqalar "Fitogarmonlarning va biostimulyatorlarning samaradorligi" Respublika Ilmiy amaliy anjumani 2013 yil.
4. "Buxoro-6 navining ko'chat qalinligi va suv iste'moli " Shaxobova Qarshi 2006. Respublika ilmiy konferensiya ma'ruzalar to'plami.
- 4.1.1. G'o'zaning sug'orish muddatlarini aniqlash Qarshi 2006 yil. Respublika ilmiy –amaliy konferensiyasi ma'ruzalari to'plami. Aliqulov.R.
- 4.1.2. Shaxobov. S, "Paxtachilikning rivoji qishloq farovovligini oshirishda va taraqqiyotining podevori" Qarshi 2009. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami.
- 4.1.3. S.M.Mirahmedov, S.H.Yo'ldoshev, Namunali.A.S, G'.M.Rudanov va boshqalar Paxtachilik sprovochnigi Toshkent mehnat 1989 yil.
- 4.1.4. Zohirov.T.S, Pochvenno agroximcheski osnoviy xlopkovodetve Toshkent 1987 yil.
- 4.1.5. Rahmonqulov.S, Problemiy razvitaya xlopkovodotvo, seleskoy xozeystva O'zbekistana N₃ 1998 yil.

Талаба

ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК-ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ

Битирув малакавий иш бўйича раҳбарнинг тақризи

Талаба: Ғулисва Чарос Ғазраткуловна

Мавзу: Ғеши ва ғиватлашнинг бошқарувчи
препаратлари нарх таҳлилининг
маъноси, (қилиш мумкин, Ғуловбек Ғазрат
куловнинг ишлари).

Малакавий иш ҳажми: 111

Ўзма изох қисми: 111

Чизмалар сони: _____

Мавзунинг долзарблиги: Ғеши ва ғиватлашнинг бошқарувчи
препаратлари нарх таҳлилининг маъноси
ҳисобида эртаги ва еттиги ҳисси тилишнинг
эртаниш мавзунинг долзарблигини билдиради.

Битирув умумтехник ва махсус тайёргарлиги тавсифи: Талаба шунинг
баъзида си-хашинг экинчиларида ва
нахша экинчилари бошқарувчи препаратлари
мурлари ҳақидаги, (қилишнинг амалдорлиги
лиҳот, атроф муҳит муҳдорлигида
ётишор бериб қаратган.

Битирувчи талабанинг мустақил ишни бажариш даёқати, махсус адабиётлардан фойдаланиш қобилияти ва шахсий хусусиятлари Талаба шунинг баъзида
даволида адабиётлардан фойдаланиш, дала
лиҳотда қаратувчи ошор борини ҳақида
қобилиятини нахша қилиди.

Малакавий ишнинг ижобий томонлари Талаба шунинг
бошқарувчи препаратлари нарх таҳлилининг
маъноси, эртаниш мавзунинг, эртаниш қил-
лашнинг ижобий томонидир.

Малакавий иш баҳоси: (максимал балл – 100 балл) 80 балл

Малакавий иш раҳбари: М. Асрақов
(ф.и.ш.)

Илмий маслаҳатчи: _____

(ф.и.ш.)

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти

Такриз

Малакавий иш мавзуси:

Малакавий ишнинг ҳажми:

а) ёзма изох қисми: varaqlar soni 127.

б) график қисми: чизмалар сони 14.

Малакавий иш мавзусининг долзарблиги ва берилган топшириққа мослиги

Макавије мнѣ навзвучити дозирбоси
ушми ва риволуцанни, вошкариваи кренарат-
сарни марта дошесдоричаи маџасри
дисорига зрнати ва ширати доши тини.
тирмии шуммошори вагми уршаммои.

Малакавий ишнинг ёзма изох ва график материалларининг ва бажарилиш сифати

Ватиканув монахавий минимизм иза изох
жиски. Жирни, чучни жач, тирновик, жин
мернатни — мурдаража билим, афро-мунит.
ни мурдаража мунисодеи жач, ауроа
ва мунисодеи, ауроа саман ауроа
лар рундаража. Инде мадвар
батарижон.

Малакавий ишда илмий манбалар, фан-техника ютуқлари ва илғор тажриба натижаларидан фойдаланилганлиги

Мамлакатнинг билим ювчилари, мамлакатимизда
қўйилган маданий муносабатларга оид
қўйилган маданий муносабатларга оид
қўйилган маданий муносабатларга оид

Меҳнат ва атроф – муҳитни муҳофазаси қисмининг ёритилганлиги *Ҳисошнинг*

Личият маршнадягу каваризлий сирот-
саломаатини ва жобилияни соқлоини

таъминлашни қараман, қиммат
қўнмак жамиятини зарарли организи-
лардан ҳимоя қилувчи (қимматли модда-
ларнинг барқасдини ҳақиқатан биологик фактор-
лардан ҳимоя қилувчи) широк организи-
ларга зарарли таъсирни кўрсатмоқчи.

Малакавий ишининг техник – иқтисодий жиҳатдан асосланганлиги

Малакавий ишда қўлланган
маълумотлар аниқ, широк
асосланган.

Малакавий ишининг ижобий томонлари ва амалий аҳамияти: Ўзбекистонда
қўнмак жамиятини зарарли организи-
лардан ҳимоя қилувчи (қимматли модда-
ларнинг барқасдини ҳақиқатан биологик фактор-
лардан ҳимоя қилувчи) широк организи-
ларга зарарли таъсирни кўрсатмоқчи.

Малакавий битирув ишининг баҳоси (максимал балл – 100 балл) ва битирувчига унга мос
йўналиш бўйича «бакалавр даражаси» берилиши мумкинлиги тўғрисида хулоса

Битирув малакавий ишда қўлланган
маълумотлар аниқ, широк
асосланган. Битирувчи
Ўзбекистон Республикаси
да 10. маълум маълумоти бўлиши
бакалавр даражаси берилиши

Такризи

Имзо



Илмий ишлар бўйича директор
мансаби, иш жойи, илмий даражаси, ф. и. ш.
Ўринбосари, ЎзПИТИ Ўқитувчи
М. Б. Ғафуров

«22» 06 2013 йил